

SO'Z QUDRATI NAVOIY NAZDIDA

Olim Jo'rayev

Buxoro davlat universiteti bitiruvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17573105>

Annotatsiya. Alisher Navoiy uchun so'z oddiy vosita emas, balki haqiqatni ifoda etuvchi, komillikka eltuvchi ma'naviy kuchdir. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning so'z va uning qudrati haqidagi qarashlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: so'z, Navoiy ijodi, "Hayrat-ul abror", bayt, doston, o'xshatish, ko'chim.

Аннотация. Для Алишера Навои слово — не просто инструмент, а духовная сила, выражающая истину и ведущая к совершенству. В данной статье рассматриваются взгляды Алишера Навои на слово и его силу.

Ключевые слова: слово, произведение Навои, "Хайрат-ул аброр", двустишие, эпос, сравнение, метафора.

Abstract. For Alisher Navoi, the word is not a simple tool, but a spiritual force that expresses truth and leads to perfection. This article discusses Alisher Navoi's views on the word and its power.

Keywords: word, Navoi's work, "Hayrat-ul abror", couplet, epic, simile, metaphor.

Quuvai hofizamizda kengroq tafakkur qilsak, bizni qurshagan borliq, atrof-olam Yaratganning lufu inoyati, mo'jizasidir. Erta tong ko'zimizni ochishimizdan tortib, tunda g'aflat uyqusiga ketishimizgacha bo'lgan oddiy bir kunning har daqiqasi takrorlanmas sehrga, mo'jizaga kon! Bu yaratilqlar orasida shunday bebaho xazina ham borki, uning qiyosi yo'q, ta'rifi-tavsifi tuganmas: bu—So'z ! Ha, So'z qudratini tan olmagan, tavsifu tasnif etmagan ijodkor bo'lmasa kerak. Ammo so'zning o'ziga xos va bebaho qadr-qimmatga egaligini, takrorlanmas tashbehlari, mubolag'a va istioralarini buyuk mutafakkir, so'z zargari hazrat Alisher Navoiy ijodida yaqqol uchratamiz.

"Hayrat ul-abror" – "Xamsa"ning birinchi dostoni. Unda so'z haqidagi hikmatlarga to'la alohida bob mavjud. Har baytida so'z ta'rif etilgan mazkur bobda so'z insonga berilgan bebaho boylik, "imtiyoz" ekanligi ta'kidlanadi:

Tengriki, insonni qilib ganji roz,

So'z bila hayvondin anga imtiyoz.

Tangri yaratgan mo'jizalar ichida eng buyugi ham, tubani ham (o'rni kelganda) odamzotdir. Ammo tildan, bir og'iz so'zdan ko'p hollarda inson boshiga kulfat yog'ilishi mumkin.

Demakki, insonni ko'kka ko'taradigan ham, ko'kdan tushiradigan ham uning amallari, tilidan chiqadigan so'z-gaplaridir:

O'z vujudingga tafakkur aylagil,

Har ne istarsen, o'zungdin istagil.

Navoiy asarlariini o'qir ekanmiz, uning qalamidan to'kilgan satrlar o'lmas durdonalar ekanligini his etamiz. Asrlar silsilasi sindirolmagan bu g'oyalar, umrboqiy hikmatlar doimo insonni yaxshilikka, to'g'rilikka undaydi:

Bordur inson zotida oncha sharaf, –

Kim yamon axloqin etsa bartaraf.

Shoir soʻzning qudrati va buyukligini qayta–qayta takrorlaydi. Zero, soʻzimiz bizning ichki dunyoimiz koʻzgusidir. Oʻrinsiz qoʻllangan soʻz bizni xijolatga qoʻyishi, muvozanatdan chiqarishi mumkin:

*Nazmki maʼni anga margʻub emas,
Ahli maoniy qoshida xoʻb emas.*

Navoiy tafakkur bilan soʻzlayotgan har kimsa, ayniqsa soʻzni qurol qilgan har bir shoir soʻz injularini tizishda ehtiyot boʻlmogʻi lozimligini taʼkidlaydi.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Navoiy yosh ijodkorlardan birini qattiq tanqid qiladi.

Koʻproq kitob oʻqishi, oʻz ustida ishlashi kerakligini uqtirganda, Osafiy degan yosh shoir: “Hozirgi kunda koʻproq sheʼr aytish bilan mashgʻul boʻlayotirman. Masalan, oʻtgan kecha ikki pullik sham yonib bitgunicha ikki yuz bayt aytdim”, – deydi.

Shunda Navoiy: “Demak u tizmalarigizning har yuz bayti bir pul ekanda”, – deb javob qilgan ekan. Koʻrinib turibdiki, Navoiy isteʼdodsiz qalamkashlarni qattiq tanqid ostiga olgan, sheʼr hajman katta boʻlsa-da, maʼnisiz boʻlsa, u baribir oʻz oʻrnini topolmasligini shoirlarga uqtirib kelgan.

Alisher Navoiy ijod dengizida Ollohning ikki buyuk moʻjizasi yonma-yon turadi: bular inson va uning soʻzi, tilidan toʻkilgan gavharlaridir. Soʻziga ehtiyot boʻlish, oʻz soʻzini taftish qilib borish insonning komilligi belgisidir!

Adabiyotlar roʻyxati

1. Alisher Navoiy. *Xamsa*. – 2 jildlik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2000.
2. Alisher Navoiy. *Mahbub ul-qulub*. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1983.
3. Alisher Navoiy. *Lison ut-tayr*. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1991.
4. Saitova B. Alisher Navoiy ijodida soʻz sehri va til jozibasi.// Oʻzbekistonda Fanlararo Innovatsiyalar va Ilmiy Tadqiqotlar Jurnali, Vol 2 No 15, 2023. bestpublication.org
5. Bozorova Gulchekhra & Akhmedova Khurshida. Alisher Navoi's contribution to linguistics and literary studies –Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(4), 2025. mjstjournal.com